INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA LAKUNAR XUSUSIY BIRIKMALAR VA ULARNI TARJIMA QILISH USULLARI

J.Y.Ibragimov[1]

1. Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti, dotsent UO‘K: 81'25+81'373:811.111+811.512.133

Mas'ul muallif: Ibragimov Javlon Yormatovich, Axborot texnologiyalari va menejmenti universiteti, dotsent UO‘K: 81'25+81'373:811.111+811.512.133.

Received: 12 Noyabr 2026
Accepted: 17 Noyabr 2026
Published: 22 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Ibragimov, J. Y. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA LAKUNAR XUSUSIY BIRIKMALAR VA ULARNI TARJIMA QILISH USULLARI / J. Y. Ibragimov // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 2. — B. 169–173.

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi muqobili bo‘lmagan aniqlovchi birikmalar, ya’ni bir tildagi tayyor muqobili boshqa tilda mavjud bo‘lmagan birliklar kognitiv va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda lakunalarning besh turi farqlanadi: referensial, kategorial, motivatsion, strukturaviy va konnotativ. Har bir tur uchun eng samarali tarjima usullari aniqlangan: transliteratsiya, kalka, tavsifiy tarjima, funksional analog, umumlashtirish va aniqlashtirish, shuningdek, aralash usullar. Tarjima usulini tanlash lakuna turiga, matn janriga, o‘quvchilar auditoriyasiga va tarjima maqsadiga bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tilib, qaror qabul qilish algoritmi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: lakuna, ekvivalentdizlik, realia, tarjima usuli, transliteratsiya, kalka, tavsifiy tarjima, funksional analog, kompensatsiya, birikma.

ЛАКУНАРНЫЕ СЛОВОСОЧЕТАНИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И СПОСОБЫ ИХ ПЕРЕВОДА

Аннотация. В статье с когнитивной и переводоведческой точек зрения анализируются безэквивалентные атрибутивные словосочетания в английском и узбекском языках, то есть языковые единицы, не имеющие готовых соответствий в другой языковой системе. В исследовании выделяются пять типов лакун: референциальные, категориальные, мотивационные, структурные и коннотативные. Для каждого типа определяются наиболее эффективные способы перевода: транслитерация, калькирование, описательный перевод, функциональный аналог, генерализация и конкретизация, а также комбинированные способы. Обосновывается, что выбор способа перевода зависит от типа лакуны, жанра текста, целевой аудитории и цели перевода. Кроме того, предлагается алгоритм принятия переводческого решения.

Ключевые слова: лакуна, безэквивалентность, реалия, способ перевода, транслитерация, калькирование, описательный перевод, функциональный аналог, компенсация, словосочетание.

LACUNARY PHRASES IN ENGLISH AND UZBEK AND METHODS OF THEIR TRANSLATION

Abstract. The article examines non-equivalent attributive phrases in English and Uzbek from cognitive and translation studies perspectives. These are linguistic units that do not have ready-made equivalents in the other language. The study identifies five types of lacunae: referential, categorical, motivational, structural, and connotative. The most effective translation methods for each type are determined, including transliteration, calque translation, descriptive translation, functional analogy, generalization and specification, as well as combined translation strategies. The article demonstrates that the choice of translation method depends on the type of lacuna, text genre, target audience, and translation purpose. Furthermore, a decision-making algorithm for selecting appropriate translation strategies is proposed.

Keywords: lacuna, non-equivalence, realia, translation method, transliteration, calque, descriptive translation, functional analogue, compensation, phrase.

Kirish. Ingliz va o‘zbek tillaridagi xususiy birikmalar milliy dunyo manzarasining turli qatlamlarini aks ettirishi ko‘rsatildi. Universal qatlamdagi birikmalar ikki tilda oson moslashadi, milliy qatlamdagilari esa ko‘pincha ikkinchi tilda tayyor muqobilga ega bo‘lmaydi. Aynan shu birikmalar tarjimonga eng ko‘p qiyinchilik tug‘diradi.

Masalan, baby shower, couch potato, glass ceiling yoki beshik to‘y, kelin salom, hashar kabi birikmalarni so‘zma-so‘z tarjima qilish yo ma’nosiz natija beradi (bola dushi), yo o‘quvchini chalg‘itadi. Ularni tarjima qilish uchun avval nima yetishmayotganini aniqlash kerak: narsaning o‘zimi, uni nomlash usulimi, farqlash darajasimi yoki obrazmi? Har bir holat o‘z tarjima usulini talab qiladi.

Tadqiqotning maqsadi – ingliz va o‘zbek tillaridagi lakunar xususiy birikmalarni kognitiv asosda tasniflash va har bir tur uchun samarali tarjima usullarini aniqlash.

Lakuna tushunchasini va uni o‘rganishdagi asosiy yondashuvlarni tahlil qilish.

Lakunar birikmalarning kognitiv tasnifini ishlab chiqish.
Lakunar birikmalarni tarjima qilish usullarini tizimlashtirish.
Tarjima usulini tanlash omillarini aniqlash va qaror qabul qilish algoritmini taklif etish.
Tarjimadagi ma'no yo'qotishlarini kompensatsiya qilish yo'llarini ko'rsatish.
Metodologiya.
Lakuna tushunchasi va uni o'rganishdagi asosiy yondashuvlar
Lakuna (lot. lacuna – bo'shliq, chuqurcha) deganda bir tilda mavjud bo'lgan tushuncha uchun ikkinchi tilda tayyor so'z yoki turg'un birikmaning yo'qligi tushuniladi [4; 19]. Bu atamani tilshunoslikka J.-P. Vine va J. Darbelne kiritgan bo'lib, ular uni tarjimada "bo'sh joy" sifatida tavsiflagan [14].
Keyinchalik lakunalarni o'rganishda bir necha yondashuv shakllandi:
Tarjimashunoslik yondashuvi. Y. Retsker va V. Komissarov lakunalarni ekvivalentsiz leksika doirasida o'rgangan va ularni tarjima qilish usullarini tizimlashtirgan [20; 22]. S. Vlaxov va S. Florin esa milliy madaniyatga xos narsa va hodisalarni bildiruvchi birliklarni realiya sifatida ajratib, ularning batafsil tasnifini bergan [18]. O'zbek tarjimashunosligida bu masala G'. Salomov [11] va Q. Musayev [8] ishlarida yoritilgan.
Lingvokulturologik yondashuv. Y. Sorokin va I. Markovina lakunalarni madaniyatlararo muloqotdagi "tushunmovchilik nuqtalari" sifatida talqin qilgan va ularning kengroq tasnifini taklif etgan [23]. E. Vereshchagin va V. Kostomarov hamda V. Maslova ularni til va madaniyat munosabatining ko'rsatkichi sifatida o'rgangan [17; 21]. G. Bikova lakunalarni til tizimidagi qonuniy hodisa sifatida ko'rib chiqqan [16].
Funksional yondashuv. M. Beyker ekvivalentsizlikning turli sabablarini – madaniy xos tushunchalar, leksikalashmagan tushunchalar, semantik murakkablik, farqlanish darajasidagi tafovutlar va boshqalarni ajratib, har biri uchun tarjima strategiyasini ko'rsatgan [2]. P. Nyumark esa madaniy so'zlarni tarjima qilish usullarini batafsil tasniflagan [9].
Mazkur paragrafda bu yondashuvlar kognitiv yondashuv va madaniy konseptuallashtirish nazariyasi bilan birlashtiriladi [12]. Asosiy savol shunday qo'yiladi: birikma ortidagi kognitiv tuzilmaning (referent, kategoriya, freym, obraz) qaysi qismi ikkinchi tilda yetishmaydi? Lakuna turi va tarjima usuli aynan shu savolga berilgan javobdan kelib chiqadi.
Natijalar va muhokama.
Lakunar birikmalarning kognitiv tasnifi
II bobning 3.1-paragraf natijalariga tayanib, lakunar xususiy birikmalarni besh turga ajratish mumkin.
1-jadval.
Lakunar birikmalarning kognitiv tasnifi

Lakuna turi	Nima yetishmaydi	Ingliz tilidan misol	O'zbek tilidan misol
Referent	Narsa yoki hodisaning o'zi	baby shower, Bonfire Night, potluck dinner	beshik to'y, kelin salom, hashar
Kategorial	Farqlanish darajasi	cousin, sister-in-law	tog'a / amaki, aka / uka
Motivatsion (obraz)	Nomlash asosidagi obraz	bottleneck, couch potato, glass ceiling	ola qarg'a, qora mushuk
Struktur	Birikma yaşash modeli	student loan repayment scheme	ota-ona duosi, el-yurt
Konnotativ	Baho va uslubiy bo'yoq	senior citizen, golden handshake	oqsoqol, ona yurt

Referent lakunalar
Referent lakunada birikma bildirgan narsa yoki hodisaning o'zi ikkinchi madaniyatda yo'q. Bu realiya-birikmalardir: baby shower (bola tug'ilishidan oldin bo'lajak onaga sovg'a beriladigan ziyofat), Bonfire Night (5-noyabrda gulxan yoqib nishonlanadigan bayram), potluck dinner; o'zbek tilida esa beshik to'y, kelin salom, non ushatar, hashar, sumalak sayli.
Kognitiv nuqtai nazardan bunday birikmalar ortida butun bir ssenariy, ya'ni harakatlar ketma-ketligi turadi [6]. Masalan, kelin salom nafaqat salomlashish, balki to'ydan keyingi kuni kelinning qarindoshlarga ta'zim qilishi, sovg'alar va duolarni o'z ichiga olgan marosimdir. Tarjimada shu ssenariyni o'quvchiga yetkazish kerak bo'ladi, shuning uchun bitta so'z bilan almashtirish yetarli emas.
Kategorial (farqlanish) lakunalari
Bu turda narsa ikki madaniyatda ham mavjud, ammo tillarda u turlicha bo'ladi. 3.1-paragrafda ko'rsatilganidek, o'zbek tili qarindoshlikni ota yoki ona tomoni va yosh bo'yicha muntazam farqlaydi. Natijada:
ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada konkretlashtirish zarur bo'ladi: my cousin uchun kontekstdan amakivachcha, xolavachcha va boshqalardan birini tanlash kerak;
o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimada esa umumlashtirish yoki izohlovchi birikma qo'llanadi: tog'am – my uncle yoki aniqlik muhim bo'lsa, my maternal uncle, my mother's brother.
Bu lakuna turi M. Beyker tasnifidagi "farqlanish darajasidagi tafovut"ga mos keladi [2]. Uning xavfi shundaki, tarjimon uni ko'pincha sezmaydi: uncle va tog'a ekvivalentdek ko'rinadi, ammo aslida ularning hajmi turlicha.
Motivatsion (obraz) lakunalar
Motivatsion lakunada tushuncha ikki tilda ham bor, ammo uni nomlashda asos qilib olingan obraz bir tilda yo'q. Masalan, bottleneck tushunchasi (jarayonni sekinlashtiradigan tor joy) o'zbek tilida ham ma'lum, lekin shisha bo'yni

birikmasi bu ma’noda qo‘llanmaydi. Xuddi shunday, glass ceiling (ayollar va ozchiliklarning yuqori lavozimga ko‘tarilishiga to‘sqinlik qiluvchi ko‘rinmas to‘siq) metaforasining o‘zbek tilida tayyor obrazi yo‘q.

2.3-paragrafda ko‘rsatilganidek, bu turdagi lakunalar asosan butun birikma darajasidagi metaforalardan iborat [3]. Ularni tarjima qilishda ikki yo‘l bor: yo ma’noni obrazsiz yetkazish (bottleneck – tor joy, to‘siq), yo maqsad tilda boshqa obraz topish (black sheep – ola qarg‘a).

Struktur lakunalar

Struktur lakunada tushuncha ham, obraz ham bor, ammo birikmaning tuzilish modeli ikkinchi tilda unumsiz. 2.2-paragrafda ko‘rsatilganidek, ingliz tili ot + ot zanjirlarini cheksiz davom ettira oladi: student loan repayment scheme, data protection officer training course. O‘zbek tilida esa izofa zanjiri tez og‘irlashadi, shuning uchun bunday birikmalar sifatdosh oboroti yoki ko‘makchili qurilmaga aylantiriladi [7]: talabalarga berilgan kreditlarni qaytarish tizimi.

Teskari yo‘nalishda o‘zbek tilidagi juft so‘zlar (ota-ona, el-yurt, avlod-ajdod, qarindosh-urug‘) ingliz tilida tayyor modelga ega emas va ko‘pincha bitta so‘z yoki sinonimik birikma bilan beriladi: el-yurt – the people, one's nation; qarindosh-urug‘ – relatives, kith and kin.

Konnotativ va uslubiy lakunalar

Bu turda denotat va obraz mos keladi, ammo birikmaning baho bo‘yog‘i yoki uslubiy mavqei farqlanadi. Ingliz tilidagi senior citizen rasmiy va neytral birikma bo‘lsa, o‘zbek tilidagi oqsoqol chuqur hurmat va ijtimoiy maqomni ifodalaydi. Ularni bir-biri bilan almashtirish denotativ jihatdan to‘g‘ri, konnotativ jihatdan esa noto‘g‘ri bo‘ladi. Ona yurt birikmasi ham homelanddan ko‘ra ancha hissiy: unda onaga bo‘lgan munosabat vatanga ko‘chirilgan. A. Vejbitskaya ta’kidlaganidek, aynan shunday "kalit" birikmalar madaniyatning qadriyatlarini eng ko‘p tashiydi [1; 15].

Konnotativ lakunalar ko‘pincha yashirin bo‘ladi, chunki lug‘atlar ularni ekvivalent sifatida beradi. Shuning uchun tarjimon matn uslubi va kontekstiga alohida e’tibor berishi kerak.

Lakunar birikmalarni tarjima qilish usullari

Tarjimashunoslikda ekvivalentsiz birliklarni tarjima qilishning bir necha usuli ishlab chiqilgan [9; 18; 20; 22]. Quyidagi jadvalda ular xususiy birikmalarga nisbatan tizimlashtirilgan.

2-jadval.

Lakunar birikmalarni tarjima qilish usullari

Usul	Mohiyati	Misol	Afzalligi / kamchiligi
Transliteratsiya	Birikma tovush yoki harf asosida ko‘chiriladi	hashar – hashar; Bonfire Night – Bonfayr Nayt	Milliy koloritni saqlaydi / izohsiz tushunarsiz
Kalka	Har bir komponent alohida tarjima qilinadi	skyscraper – osmono‘par; computer virus – kompyuter virusi	Model va obrazni saqlaydi / obraz tushunilmasa, ma’no yo‘qoladi
Yarim kalka	Bir komponent kalka, boshqasi o‘zlashma	rock music – rok musiqasi	Moslashuvchan / qo‘llanish doirasi tor
Tavsifiy tarjima	Ma’no izohlovchi birikma yoki gap bilan beriladi	couch potato – kun bo‘yi televizor oldidan turmaydigan dangasa	Ma’no to‘liq / ixchamlik va obraz yo‘qoladi
Funksional analog	Maqsad tildagi o‘xshash vazifali birlik olinadi	black sheep – ola qarg‘a; rainy day – qora kun	Tabiiy va obrazli / milliy obraz almashadi
Umumlashtirish	Torroq tushuncha kengrog‘i bilan almashtiriladi	tog‘a – uncle	Oson / farqlanish yo‘qoladi
Konkretlashtirish	Kengroq tushuncha torrog‘i bilan almashtiriladi	cousin – xolavachcha	Aniq / kontekst ma’lumoti talab qilinadi
Kombinatsiyalashgan usul	Transliteratsiya yoki kalka + izoh	beshik to‘y – beshik toy (a celebration held when a newborn is first placed in the cradle)	Ham kolorit, ham ma’no saqlanadi / matn uzayadi
Izoh (snoska, lug‘at)	Ma’no matndan tashqarida izohlanadi	Badiiy matnda realiya + sahifa osti izohi	Matn ixcham qoladi / o‘qish oqimi buziladi

Transliteratsiya va kombinatsiyalashgan usul

Transliteratsiya referent lakunalar uchun eng ko‘p qo‘llanadigan usuldir, chunki u milliy koloritni saqlaydi. Biroq yangi realiya birinchi marta qo‘llanganda, uni deyarli doim izoh bilan birga berish kerak. Shuning uchun amalda sof transliteratsiya emas, balki kombinatsiyalashgan usul samaraliroq: birinchi qo‘llanishda transliteratsiya + izoh, keyingi qo‘llanishlarda esa faqat transliteratsiya. Masalan: hashar – a traditional form of voluntary communal work in which neighbours help one another, keyin esa shunchaki hashar.

Kalka

Kalka asosan struktur va motivatsion lakunalarni to‘ldirishda, ayniqsa ilmiy-texnik terminologiyada qo‘llanadi: computer virus – kompyuter virusi, data base – ma’lumotlar bazasi, search engine – qidiruv tizimi. 2.2-paragrafda ko‘rsatilganidek, agar ikkala kirish maydoni har ikki madaniyatda mavjud bo‘lsa, konseptual integratsiya mahsuli kalka orqali osongina ko‘chadi [5]. Agar obraz maqsad madaniyatda tushunarsiz bo‘lsa (couch potato – divan kartoshkasi), kalka xato natija beradi.

Tavsifiy tarjima va funksional analog

Tavsifiy tarjima ma’noni eng to‘liq yetkazadi, ammo birikmaning ixchamligi va obrazliligi yo‘qoladi. Shuning uchun

u asosan rasmiy, ilmiy va izohli matnlarda qo‘llanadi.

Funksional analog esa badiiy va publitsistik matnlarda afzal, chunki u maqsad tilda tabiiy eshitiladi. Biroq bu usulda manba tildagi milliy obraz maqsad tildagi obraz bilan almashadi. Masalan, to save for a rainy day ni qora kunga asramoq deb tarjima qilish tabiiy, lekin ingliz iqlimi bilan bog‘liq obraz yo‘qoladi. Agar matnda aynan shu obraz muhim bo‘lsa (masalan, Angliya ob-havosi haqida gap ketsa), funksional analog noo‘rin bo‘lishi mumkin.

Umumlashtirish va konkretlashtirish

Bu usullar asosan kategorial lakunalar uchun xosdir. O‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimada ko‘pincha umumlashtirish (amaki, tog‘a – uncle), ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimada esa konkretlashtirish (cousin – amakivachcha yoki boshqa variant) qo‘llanadi. Konkretlashtirish uchun kontekstda yetarli ma’lumot bo‘lmasa, tarjimon neytral tavsifiy birikmani tanlashi mumkin: cousin – jiyan, qarindosh, amakivachcha yoki xolavachcha.

Tarjima usulini tanlash omillari va algoritmi

Bir xil lakunar birikma turli matnlarda turli usul bilan tarjima qilinishi mumkin. Usulni tanlashga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

Lakuna turi – yuqorida ko‘rsatilgan besh turdan qaysi biri ekanligi;


Matn janri va vazifasi – badiiy, publitsistik, ilmiy-texnik yoki rasmiy matn;

O‘quvchi – manba madaniyatni qanchalik bilishi;

Birikmaning matndagi ahamiyati – asosiy ma’no yuki unga tushadimi yoki ikkinchi darajalimi;

Milliy koloritni saqlash zarurati – matnda madaniy o‘ziga xoslik muhimmi. L. Venuti bu tanlovni "begonalashtirish" (foreignization) va "mahalliylashtirish" (domestication) strategiyalari o‘rtasidagi tanlov sifatida tavsiflaydi [13].

Bu omillarni hisobga olgan holda usul tanlash algoritmini taklif etamiz (1-rasm).



1-rasm. Lakunar birikmani tarjima qilish usulini tanlash algoritmi

Algoritm birinchi navbatda lakuna turini aniqlashni talab qiladi, chunki aynan u usullar doirasini toraytiradi. So‘ng matn turi va o‘quvchi omillari asosida aniq usul tanlanadi. Masalan, hashar birikmasi o‘zbek madaniyati haqidagi ingliz tilidagi maqolada kombinatsiyalashgan usul bilan, xalqaro tashkilot hisobotida esa tavsifiy tarjima bilan (community volunteer work) berilishi mumkin.

3-jadval.

Algoritmning amaliy qo‘llanilishi

Birikma	Lakuna turi	Matn turi	Tanlangan usul	Tarjima
baby shower	Referent	Badiiy	Kombinatsiyalashgan	beybi shauer – bola tug‘ilishi arafasida bo‘lajak onaga sovg‘a beriladigan ziyofat
beshik to‘y	Referent	Ilmiy-etnografik	Transliteratsiya + izoh	beshik toy (cradle celebration)
cousin	Kategorial	Badiiy	Konkretlashtirish	xolavachcha (kontekstga ko‘ra)
tog‘a	Kategorial	Rasmiy hujjat	Tavsifiy	maternal uncle
bottleneck	Motivatsion	Iqtisodiy	Tavsifiy / funksional	tor joy, to‘siq

Birikma	Lakuna turi	Matn turi	Tanlangan usul	Tarjima
glass ceiling	Motivatsion	Publitsistik	Kalka + izoh	"shisha shift" – ko‘tarilishga to‘sqinlik qiluvchi ko‘rinmas to‘siq
ola qarg‘a	Motivatsion	Badiiy	Funksional analog	black sheep
student loan repayment scheme	Struktur	Rasmiy	Grammatik transformatsiya	talabalarga berilgan kreditlarni qaytarish tizimi
oqsoqol	Konnotativ	Publitsistik	Transliteratsiya + izoh	oqsoqol (a respected community elder)

Jadvaldan ko‘rinadiki, glass ceiling kabi ayrim motivatsion lakunalar kalka orqali maqsad tilga kirib, asta-sekin o‘zlashib bormoqda. Bu lakunalarning statik emas, balki dinamik hodisa ekanini ko‘rsatadi: tillararo aloqalar kuchaygan sari ba’zi lakunalar to‘ldiriladi, ba’zilari esa yangidan paydo bo‘ladi.

Tarjimadagi yo‘qotish va kompensatsiya

Lakunar birikmani tarjima qilishda qandaydir yo‘qotish deyarli muqarrar: tavsifiy tarjimada ixchamlik va obraz, funksional analogda milliy kolorit, umumlashtirishda esa aniqlik yo‘qoladi. Shuning uchun tarjimon kompensatsiya usulidan foydalanadi, ya’ni yo‘qotilgan unsurni matnning boshqa joyida tiklaydi [20; 22].

Kompensatsiyaning asosiy yo‘llari:

kontekstual kompensatsiya – realiya birinchi marta izoh bilan beriladi, keyin esa o‘quvchi uni kontekstdan tushunadi;

uslubiy kompensatsiya – obrazli birikma neytral tarjima qilinsa, matnning boshqa joyida obrazli ifoda qo‘shiladi;

paratekstual kompensatsiya – sahifa osti izohi, lug‘at yoki so‘zboshi orqali madaniy ma’lumot beriladi.

Kompensatsiya tarjimonga birikmaning o‘zini emas, balki uning matndagi kognitiv ta’sirini saqlash imkonini beradi. Bu E. Naydaning dinamik ekvivalentlik g‘oyasiga mos keladi: tarjima o‘quvchisi asl matn o‘quvchisi bilan imkon qadar bir xil taassurot olishi kerak [10].

Xulosa

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarga olib keladi:

Lakunar xususiy birikma – birikma ortidagi kognitiv tuzilmaning (referent, kategoriya, obraz, model yoki baho) ikkinchi tilda yetishmasligi natijasidir.

Kognitiv asosda besh turdagi lakuna ajratildi: referent (baby shower, beshik to‘y), kategorial (cousin, tog‘a), motivatsion (bottleneck, ola qarg‘a), struktur (student loan repayment scheme, el-yurt) va konnotativ (senior citizen, oqsoqol).

Har bir lakuna turi uchun ma’lum usullar samaraliroq: referent lakunalar uchun transliteratsiya va kombinatsiyalashgan usul, kategorial lakunalar uchun umumlashtirish va konkretlashtirish, motivatsion lakunalar uchun funksional analog va tavsifiy tarjima, struktur lakunalar uchun grammatik transformatsiya va kalka, konnotativ lakunalar uchun transliteratsiya va izoh.

Usul tanlash lakuna turi, matn janri, o‘quvchi, birikmaning matndagi ahamiyati va milliy koloritni saqlash zaruratiga bog‘liq; bu omillar asosida qaror qabul qilish algoritmi taklif etildi.

Lakunar birikmalarni tarjima qilishda yo‘qotish muqarrar, ammo u kontekstual, uslubiy va paratekstual kompensatsiya orqali qisman tiklanadi.

Lakunalar dinamik hodisa: tillararo aloqalar natijasida ayrimlari kalka va o‘zlashma orqali to‘ldiriladi (glass ceiling, kompyuter virusi). Natijalardan amaliy tarjima, tarjimashunoslik bo‘yicha mashg‘ulotlar va ikki tilli lug‘atlar tuzishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Ashurova D.U., Galiyeva M.R. Cultural Linguistics. – Tashkent: VneshInvestProm, 2019.

[2] Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London; New York: Routledge, 1992.

[3] Benczes R. Creative Compounding in English: The Semantics of Metaphorical and Metonymical Noun-Noun Combinations. – Amsterdam: John Benjamins, 2006.

[4] Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – London: Oxford University Press, 1965.

[5] Fauconnier G., Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. – New York: Basic Books, 2002.

[6] Fillmore Ch. Frame semantics // Linguistics in the Morning Calm. – Seoul: Hanshin, 1982.

[7] Hojiyev A. O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007.

[8] Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2005.

[9] Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988.

[10] Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E.J. Brill, 1964.

[11] Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.

[12] Sharifian F. Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language. – Amsterdam: John Benjamins, 2017.

[13] Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. – London; New York: Routledge, 1995.

[14] Vinay J.-P., Darbelnet J. Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. – Amsterdam: John Benjamins, 1995.